

# TONG yulduzi

N: 48  
(66485)

2004 yil  
29 noyabr - 5 dekabr

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqa  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOY HARAKATI.

3 dekabr - Nogironlar kuni

## QUVONCHINIZGA QUVONCH QO'SHILDI


Yurtimizda bolajonlarning yayrab kamol topishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bulardan to'g'ri foydalanib, faqat a'lo baholarga o'qish bizning burchimizdir. Kuni kecha 2-sonli maxsus bolalar internatimiz jamoasining yangi muhtasham binoga ko'chib o'tishi bir quvonchimizga ming quvonch qo'shdi. Yorug', shinam sinf xonalari, sport zali, turli to'garaklar bizning ixtiyorimizda. Ta'lim

maskanimizda sil kasali bilan og'rikan bolalar tahsil olishadi. Ularning butunlay sog'ayib ketishi uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Har kuni malakali shifokorlar boshchiligidagi tibbiy muolajalar o'tkaziladi. Maxsus internatimizda Sharifa A'zamova, G'aybullo Hasanov, Bashorat Hodiyeva, Matlyuba Hamiyatova, Dilora Xabibulina kabi o'z kasbining fidoiylari mehnat qilishadi. Ustozlarimizning shirinsozligi, bizga o'z farzandlari

respublika miqiyosida bo'lib o'tgan tanlovda qatnashib, oliy o'ringa sazovor bo'lgan bo'lsa, zardo'zlik sirlarini o'rganayotgan qizlarimiz chevarligi bilan Buxoro shahriga tashrif buyurgan chet ellik mehmonlarni lol qoldirishdi. Barcha ibratli ishlarimizga sinf rahbarimiz Dilora opa boshqosh bo'ladilar. Ta'lim maskanimizga Buxoro Yog'moy kombinati jamoasi homiylik qiladi. Ular internatimizga tez-tez tashrif buyurishib, bolajonlar bilan suhbatlar o'tkazadilar.

O'quvchilarimizning 2005 yilgi gazeta va jurnallar obunasi uchun ushbu korxonaga jamoasi yaqindagina o'z hisobidan 100.000 so'm pul o'tkazib berishdi. Biz kabi o'ksik ko'ngillarga malham bo'layotgan qalbi daryo insonlar safi yanada kengayaversin, deymiz.

9-sinf o'quvchilari,  
Buxoro viloyati,  
G'ijduvon shahri.



Biz sinfimiz bilan «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qiyamiz. Unda tengdoshlarimning ijodlaridan namunalar, she'rlar, turli boshqotirmalarning berib borilishi sevimli gazetamizning sahifalarini bir-birlaridan qiziq voqealar bilan to'ldirilishi biz

## BIRINCHILARDAN BO'LIB OBUNA BO'LDIK

uchun quvonchli hol, albatta. O'tgan yili bu gazetaga sinfimiz bilan obuna bo'lgan edik. Gazeta kelgach, sinfdoshlarim qo'lma-qo'l qilib, talashib o'qishardi. Bu yil sinf rahbarimiz: -Qani, sinfboshi, bu yil qaysi nashrga obuna bo'lamiz?-deb qoldilar. Men hammaning nomidan, albatta «Tong yulduzi»ga-da, dedim. Sinf rahbarimiz kulib: -Seni shunday deyishingni bilardim, -dedilar va biz birinchilardan bo'lib bu gazetaga obuna bo'ldik. Fursatdan foydalanib, barcha tahririyat xodimlariga mashaqqatli ishlarida omadlar tilayman. Biz kabi O'zbekiston bolalariga ma'naviyat nurlarini ulashishdan sira ham tolishmasin.



Feruza HAMROYEVA,  
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 21-o'rta maktabning  
II-«A» sinf o'quvchisi.

Bizning litseyimiz keyingi 2-3 yil ichida ko'p yangiliklarga quchoq ochdi. Yurtboshimiz yosh avlodni jismonan baquvvat va

sportchilar bu yildan boshlab ta'tildagi musobaqalarni rejalashtirdilar. Musobaqaning nomini xotira turniri, deb nomladik. Tumanimizning sobiq

## XOTIRA TURNIRI BO'LIB O'TDI

sog'lom bo'lib o'sishiga katta-katta imkoniyatlar yaratib bermoqdalar. O'z o'rnida litseyimizdagi sport uchun yaratilgan imkoniyatlardan quvonmoqdami. Ha, o'quv dargohimizda kundun-kun sportchilar soni o'smoqda. Kerakli sport anjomlarimiz yetarli. Rosti, sportga e'tibor o'quvchi va o'qituvchilarni ham befarq qoldirmayapti.

Kuzgi ta'tilimiz juda maroqli o'tdi. Bo'lajak

hokimi Sayfiddin Qodirovning xotira turniriga uning oila-azolari, qarindoshlari va mehmonlar taklif etildi.

Musobaqalar o'rtoqlik uchrashuvlari bilan boshlandi. Har bir sinf o'quvchilari bir-birlari bilan o'zaro bellashdilar. Musobaqa yakunida g'oliblar sovrinlar bilan taqdirlandilar.

Biz o'quvchilarga shunday musobaqalarni uyushtirishda yordam ko'rsatgan mehribon, jonkuyar ustozlarimizdan minnatdormiz.

Jasurbek MIRZAYEV,  
Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi  
16-litseyning 11-sinf o'quvchisi.

## SEN TUFAYCI JURNALIST BO'LAMAN

O'sha vaqtlarda sinfdoshlarimning barchasi adabiyotga, ayniqsa she'riyatga mehri baland edi. Ayajonim uyga har kungidan barvaqtroq keldilar. Quvonchdan entikib, ko'zlaridan yosh oqardi.

-Nima bo'ldi, ayajon? -so'radim ularning yuzlaridagi yoshlarini artib.

-Ona qizim, mana buni bir ko'rgin,- dedilar qo'limga «Tong yulduzi» gazetasini tutqazib. -Sening she'ring chiqibdi.

Shoshib gazetani varaqlay ketdim. 5-sinf o'quvchisi


Dilfuza Xolmatovani qayta-qayta o'qiyman. G'ururlanib ketdim, o'zimni xuddi shoirlardek his qildim. Butun mahalla, qarindosh-urug' hammasi meni tabriklashardi.

O'ylab qolaman, ehtimol o'sha vaqtlar «Tong yulduzi»da o'sha she'riy mashq chop etilmaganda o'sha havas balki bugun yo'qolib ketarmidi. Hali-hali mana shu ro'znomani jonu dildan sevib o'qiyman. Onamning o'sha ko'z yoshlari quvonch yoshlari ekanini his qildim. Bugun Milliy Universitetning jurnalistika fakultetida o'qiyapman. Amaliyotni ham shu gazetada o'tamoqdaman. Men bir kun kelib, yetuk jurnalist bo'lsam, hech ikkilanmasdan meni jurnalist qilgan «Tong yulduzi» deb ayta olaman.

Siz dunyoda tengi yo'q,  
Muallimsiz mehribon.  
Siz kulsangiz dunyo ham,  
Bo'lib ketar charog'on.  
Muallimsiz, onasiz,  
Sizni sevar o'g'il, qiz.  
Siz dunyoda tengi yo'q,  
Qoldirdingiz o'chmas iz.



Dilfuza XOLMATOVA,  
O'ZMU jurnalistika fakultetining 1-kurs talabasi.



## QIZIQARLI UCHRASHUV

Kitob beqiyos tarbiyachidir. Insonning qalbi u tufayligina ma'rifatga to'ladi. Kuni kecha Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyida O'zbekiston Xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov bilan o'tkazilgan ijodiy uchrashuv ham bilim manbai kitobga bag'ishlandi. O'quvchilar ijrosidagi rang-barang qo'shiqlar va raqslar, yozuvchining asarlaridan tayyorlangan sahna ko'rinishlari tadbir ko'rkiga ko'rk baxsh etdi. Uchrashuvdan asosiy maqsad - o'quvchilarning kitob to'g'risidagi, tanqidiy va ijobiy fikrlari bilan yaqinroq tanishish edi. Qiziqarli savollar, bahsmunozaralarga to'la bu tadbir bizda katta taassurot qoldirdi.

Go'zal QURBONOVA,  
litsey o'quvchisi.

## ORZULARIM BIR OLAM

Inson orzu qilmay yashay olmaydi. Biror maqsadni ko'zlab, ana shu sari olg'a intilish har bir insonga xos fazilat. Ayniqsa, maktabni bitirish arafasida turgan ba'zi tengdoshlarim, qaysi kasbni tanlasammikin, deya o'ylanib qolishlari tabiiy. Ularning ba'zilari ota-onasi istagan kasbni egallasa, ba'zilari o'zi ko'ngliga tugib qo'ygan umidlari sari intiladi. Men ham kelajakda jurnalist bo'lishni xohlayman. Orzularim bir olam. Unga yetishish uchun esa tinmay izlanishim, o'qishim kerak. Jurnalistlikning mashaqqati, qiyinchiliklaridan aslo qo'rqmayman. Faqat orzuimga yetishsam bas. Men tengdoshlarimga ham o'z sevgan kasblarini egallashlariga tilakdoshman.

Hulkar YO'LDOSHEVA, Toshkent viloyati,  
Parkent tumanidagi 7-o'rta maktabning  
10-«A» sinf o'quvchisi.



## SHOIRA BO'LSAN

Bugun-chi men xayolan bir zum,  
Sehrgarga aylanib qoldim.  
Kim bo'layin deya hayotda,  
Uzun-uzun xayolga toldim.

Balki yaxshi bo'lganim oftob,  
Nur sochaman butun olamga.  
Bo'lib baland serqoya bir tog',  
Qirmiz lola tutsam odamga.

Shabnam tomchisiga aylansam,  
Balki tomarmidim gullarga.  
Qorong'ulik cho'kkudek bo'lsa,  
Aylanib qolardim tunlarga.

Mayli bo'lay men komil farzand,  
Ota-onam ko'rsin rohatim.  
Yurak undar bo'lay shoira,  
Faqat shunga yetar toqatim.

Nigora MIRSODIQOVA,  
Poytaxtimizdagi 315-maktabning  
9-«V» sinf o'quvchisi.

-Men «Tong yulduzi» gazetasini har bir sonini intiqib kutaman. Bu yil ham har yildagidek gazetaga birinchilardan bo'lib obuna bo'ldim va sinfdoshlarimga ham shuni maslahat berdim. Chunki bu gazeta biz bolalarning eng sevimli nashrimiz-da. Ayniqsa, undagi turli boshqotirma-yu topishmoqlar, hazil she'rlar-u rang-barang maqolalarni o'qib, dunyoqarashimiz yanada kengayadi. Bir so'z bilan aytganda, «Tong yulduzi» biz o'quvchilarni ma'naviyatimizni oshirib, bilim doiramizni yanada kengaytiradi, -deydi tengdoshingiz Gulsanam TO'RAYEVA. U Shahrisabz tumanidagi Yorbobo Toshev nomli 45-o'rta maktabning 5-«G» sinfida o'qiydi. Gulsanam ona shahri, o'zi o'qiydigan maktabi, dugonalari haqida quyidagilarni gapirib berdi:

## GULSANAMNI TANIYSIZMI?

gapirmoqchiman. Ular darslarini shunday o'tadilarki, beixtiyor o'tilayotgan dars ichiga qanday qilib sho'ng'ib ketganimizni sezmay qolamiz. A.Navoiy, Bobur g'azallarini, turli afsonalarni o'qib berganlarida, ana shu afsona qahramoniga aylanib qolgandek sezamiz o'zimizni.

tumani televideniyesi direktori Gulnora opa Uzoqovaga o'z minnatdorчилиgimni bildirmoqchiman.

- Badiiy kitoblar ham o'qib turasizmi?

- Ha, juda ko'p kitob o'qiyman. Ayniqsa, she'rlar mutolaa qilishni sevaman. Abdulla Oripov, Zulfiyaxonim, Muhammad Yusufning she'rlarini miriqib o'qiyman. Yana bo'sh vaqlarimda turli rasmlar chizib turaman. Tabiat manzaralari, turli jonivorlarni mo'yqalamda tasvirlashga qiziqaman.

- Ilk she'ringizni eslay olasizmi?

- Shoir borki, menimcha ilk she'rini onasiga bag'ishlasa kerak. Men ham birinchi she'rimni ularga bag'ishlab yozgandim. Dunyoda onadek muqaddas inson bo'lmasa kerak. Mening oyijonimlar uy bekasi. Ikkita akam bor. Jasur va Jonibek. Ular bo'sh vaqlarida dadamga yordam berishadi. Men esa, oyijonimga yordamchiman.

- Kelgusida qaysi kasbni egallamoqchisiz?

- Men jurnalist bo'lishni xohlayman. Lekin she'r yozish-u, rasm chizishni ham tashlamoqchimasman.

- Suhbatimiz so'nggida she'rlaringizdan o'qib berasizmi?

- Men tengdoshlarimga «Tabarruk yurt» deb nomlangan she'rimni o'qib bermoqchiman.

Tabarruk yurt - ko'hna Kesh,  
Ko'p tarixlar guvohi.

Biz yoshlarga har doim,  
Ibrat bo'lar sabog'i.

Buyuk bobomiz Femur,  
Yurtimizni saqladi.

Saltanatni jam qilib,  
O'z burchini oqladi.

Bobom bosgan izlardan,  
Biz ham olg'a boramiz.

Ozod Vatan bag'rida,  
Jannat makon quramiz.

- Sizga kelgusi ishlarigizda omadlar tilaymiz. Yurtimizda sizdek iqtidorli yoshlar ko'payaversin.

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.


-Maktabimiz marhum direktorimiz Yorbobo Toshev nomi bilan ataladi. Ular maorif sohasida jonkuyar ustozlardan biri bo'lganlar.

-Gulsanam, nima uchun shahringizning nomi Shahrisabz deyilishini bilasizmi?

- Albatta, avvallari bu shaharni Kesh deyishgan. Keyinchalik bu shaharni Shahrisabz deb atashgan. Chunki bu yerlarda boshqa joylarda uchramaydigan yam-yashil qir-adirlar ko'p bo'lgan. Shuning uchun Shahrisabz ya'ni, Yashil shahar deb atashgan.

- Ustozlaringiz haqida gapirib bering...

- O'zim adabiyot faniga qiziqqanim uchun shu fandan saboq beruvchi Shalola opa Qudratova haqida



Adabiyotga, she'riyatga oshno qalblar yomonlikni bilishmaydi, shundaymi?

- Ha, men ham she'riyatga qiziqaman. She'rlarim «Samarqand» gazetasida chop

etib turiladi. Ustozim yozuvchilar uyushmasi a'zosi, taniqli shoir Nurillo Ostonshe'rlarimni ko'rib, kamchiliklarini aytib turadilar. Yaqinda ular bilan birgalikda «Tabarruk yurt» deb nomlangan she'riy to'plamimni nashrdan chiqarmoqchimiz. Fursatdan foydalanib, men Shahrisabz



Chempion bo'lishni orzu qilmagan bola bo'lmasa kerak. Viloyatimizdagi har bir sportchi yosh Abdulla T a n g r i y e v, Muhammadqodir

«To'palangsuvqurilish» boshqarmasi sahovatli kishilari tomonidan qurib berildi. 109 million so'm sarflangan ushbu inshootdagi 1200 o'rinli katta stadionda hozir

himoya qilishadi, albatta. Shuningdek, Sherobod tuman markazidagi «Paxtakor» o'yingohi «Do'stlik» kichik korxonasi tomonidan, Qiziriq tumanidagi

musobaqalari tez-tez o'tkazilmoqda. «Otam, onam va men - ahil sportchilar oilasi», «Sog'lom oila», «Umid nihollari» sport musobaqalari ham

## «RAHMAT SIZGA, HOMIY AMAKILAR!»

Abdullayev, Rustam Qosimjonov, Iroda To'laganovlardek mashhur bo'lib, Vatanimiz dovrug'ini olamga taratishni istaydi. Ha, viloyatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish tufayli muvaffaqiyatlarga erishmoqdamiz.

Yurtboshimizning bolalar sportini rivojlantirish yo'lidagi g'amxo'rliklari ham viloyatda o'z aksini topmoqda. Jang'armaning viloyat

atrofdagi qishloq bolalari darsdan bo'sh paytlari shug'ullanib, chiniquqdalalar. Qumqo'rg'on tumanidagi Bagara qishlog'ida ham ana shunday zamonaviy sport inshooti qad ko'tardi. «Surxonirostroy»lik amakijonlar qurib berishgan bu ulkan sport majmuasida yoshlar futbol, voleybol, yengil atletika, qo'l to'pi, karate bilan muntazam shug'ullanmoqdalar. Denov tumanida S. R a h i m o v s h i r k a t x o'jaligidagi

«Yangiyo'l» mahallasidagi o'yingoh «Boychiborplast» xususiy korxonasi tomonidan, Jarqo'rg'on tumanidagi 21-maktab o'yingohi, 277-XMKJ tomonidan to'liq ta'mirlab berildi. Kelajagimiz uchun qayg'urib muruvvat

yoshlarning faolligida o'tdi.

Jang'arma tashkil topgan 2002 yilda 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida sport seksiyalarida muntazam shug'ullanayotganlar 18 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozir 31 foizni tashkil etmoqda.

### Bolalar sporti

Sport-barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim vositadir.

ko'rsatayotgan insonlar viloyatimizda ko'pchilikni tashkil etadi. Denov tumanidagi «Lochin» fermer xo'jaligi raisi, O'zbekiston Qahramoni Ahmad Narzullayev o'z mablag'i hisobiga 4-maktab o'yingohini qayta qurib, hashamatli sport majmuasi qurib berishdi.

Endi viloyatimizda ommaviy sport

Sport-mustahkam sog'liq garovi. Sog'-salomat yoshlarga katta bunyodkorlik ishlariga tayyor bo'lishadi. Viloyatimizdagi umidli yoshlarimizga yaratilgan qulay sport majmualarida yangi-yangi marralarga yetish uchun harakat qilmoqdalar.

**Bahrom HAMROYEV,**  
Surxondaryo viloyati bolalar sportini rivojlantirish jang'armasi raisi.



filiali tashkil etilib, barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu kungacha Sariosiyo tumani Oxunboboyev shirkat xo'jaligidagi «Charog'on» bolalar sport majmuasi

«Oqlar» qishlog'idagi sport inshooti ham 14, 16, 36, 42, 46- maktab o'quvchilarining sevimli maskaniga aylangan. Ular chempion akalari singari musobaqlarda viloyat, respublika sharaflini

### Milliy o'yinlarimiz

## SAMOLYOTLAR

O'yin zal yoki sport maydonida o'tkaziladi. Guruhning turishi samolyot shaklida bo'lishi kerak. Guruh sardori: «Uchishga tayyorlaning!» deyishi bilan bolalar qo'llarini samolyot parraklariga o'xshatib harakatlantiradilar. «Uchinglar!» buyrug'i berilganida esa bolalar quloqch yozib, har tomonga yugurib ketadilar. «Yerga qo'nishga tayyorlaninglar!» buyrug'i bo'lganda ular o'z joylarini topib, yana safga turadilar.

Birinchi bo'lib o'z joylarini egallagan bolalar «Birinchi uchuvchi» nomini oladilar.



## BIRINCHI SHE'R

Onalar yozadi

Elas-elas eslayman bir kun,  
Onajonim og'rib qoldingiz.  
Balki bizning tashvishimizda,  
Yugurgilab, tolib qoldingiz.  
O'sha kuni qo'rqib qoldim men,  
Jon-omonat ekanim sezdim.  
Bag'ringizga boshimni qo'yib,  
Eng birinchi she'rimni yozdim.  
Men bilaman, onajon bugun,  
Sirlargami to'la ko'zingiz.  
Bu dunyoda yozgan zo'r she'rim-  
Onajonim, faqat o'zingiz!

Ma'mura  
MADRAHIMOVA.

## TEST SAVOLLARI

1. **Futbolda nechta o'yinchi o'ynaydi?**  
A.) 11 ta; B.) 9 ta; D.) 10 ta; E.) 8 ta.
2. «Paxtakor» murabbiyini aniqlang.  
A.) Mirjalol Qosimov;  
B.) Tajimurod Agimurodov;  
D.) Ravshan Haydarov;  
E.) Igor Shkvirin.
3. **Kristiano Ronaldo to'p suradigan jamoa?**  
A.) Diportivo;  
B.) Dinamo;  
D.) Manchester Yunayted;  
E.) Neftchi.
4. «Milan» qaysi davlatning futbol klubi?  
A.) Germaniya; B.) Angliya;  
D.) Ispaniya; E.) Italiya.
5. **Roman Abramovichning xo'jayinlik klubi?**  
A.) Chelsi; B.) Tottenxem;  
D.) Real Madrid; E.) Lion.
6. «Paxtakor» klubi sardori?  
A.) Mirjalol Qosimov;  
B.) Baxtiyor Ashurmatov;  
D.) Asror Aliqulov;  
E.) Aleksandr Geynrix.
7. **Terma jamoamizning 4 raqamli o'yinchisi?**  
A.) Leonid Koshelev;  
B.) Maksim Shatskix;  
D.) Mirjalol Qosimov;  
E.) Baxtiyor Ashurmatov.
8. «Paxtakor» klubi darvozaboni?  
A.) Malafiyev; B.) Polyakov;  
D.) Gusev; E.) Nesterov.
9. **2004 yilda o'tkazilgan Yevropa tempionatiga mezbonlik qilgan davlat?**  
A.) Portugaliya;  
B.) Fransiya;  
D.) Gollandiya;  
E.) Germaniya.
10. **So'nggi Jahon chempionati bo'lgan davlat?**  
A.) Fransiya;  
B.) Braziliya;  
D.) Gretsiya;  
E.) O'zbekiston.


Tuzuvchi:  
Nuriddin HAYDAROV.

Aziz bolajonlar! Shoir Dilshod RAJAB - 1964 yil Buxoro viloyati, Shofirkon tumanida tugilgan. Uning «Qorqiz sovg'a keltirdi», «Hazilkashlar davrasi», «Otam ning bog'i», «Sanoq» kabi o'nlab kitoblari siz bolajonlarga bag'ishlangan. Shoir she'rlari siz o'qiyotgan darslik kitoblarga ham kiritilgan. Dilshod RAJAB lotin alifbosi harflari asosida she'rlar yozdi. O'qing, yod oling.

# ALIFBO



**A** - Ahil asalarilar,  
Azonlab tushar ishga.  
Atrof, dala, bog'lardan,  
Asal yig'ishar qishga.  
Ayi bo'lsa, meshqorin,  
Asallarni yer borin.  
Arilar xafa g'oyat,  
Axir, bormi adolat?



**B** - Baliq boyvuchcha, desam,  
Bekor gap, dema hecham.  
Boq, o'zing, ana o'rtoq,  
Badani xo'p yaltiroq.  
Boshdan-oyoq tanga u,  
Bas, boyvuchcha yanga u.



**D** - Delfin mohir dengizchi,  
Dono, aqlli biram.  
Dengizga cho'ksa birov,  
Darrov beradi yordam.



**E** - Etikdo'z Echki eski,  
Etiklarni rostladi.  
Eplab, qolipga tortib,  
Eshakvoyga mosladi.



**F** - Farrosh Fil xola, qarang,  
Tozalabdi har yoqni.  
Topmaysiz hech yerda chang,  
Artib kiring oyoqni.  
Fayzli, fusunkor bo'lib,  
Yashnab turar hammayoq.  
Farroshlar mehnatini,  
Qadrlang, siz, ey o'rtoq!




**G** - Gimnastikachi -  
Gavdali, durkun.  
Gardani yo'g'on,  
Gorilla maymun.  
Gap yo'q mashqqa,  
Bajarar chaqqon.  
Olqishlar olib,  
Hammaga yoqqan.



**H** - Hakka harbiy xizmatda,  
Himoyachi, zo'r posbon.  
Havodan o'tmas pashsha,  
Hatlolmas yerdan sichqon.

**I** - It ishonchli izquvar,  
ishini yaxshi bilar.  
Ishkal qilsa kim-birov,  
Izini olib darrov,  
Izlab-izlab topadi,  
Irillaydi, qopadi!



**J** - Jarroh Jayra,  
Ja zo'r-da.  
Kasallarga,  
G'amxo'r-da.  
Sekin tiqar  
Ninasin.  
Ishonmagan,  
Sinasin.



**K** - Kalamushvoy  
kemirar,  
Kundan-kunga  
semirar.  
Boshqa kasbi-  
kori yo'q,  
Andishasi,  
ori yo'a.



**L** - Lofchi laylak lof urar,  
Laqma, laqqa baqaga.  
So'ng cho'qib shartta yutar,  
Dars bu bola-chaqaga.




**M** - Maymun bilan Mosh mitti,  
Masxaraboz o'yinchi.  
Maydonda mashq qilmoqda,  
Mana, siz ham ko'ring-chi:  
Maymunni mashinaday  
Minib, haydamoqchi Mosh.  
«Mashina»-chi, miq etmas,  
Tormozda-da, nailoj?




**N** - Ninachixon raqqosa,  
Nozik, navnihol rosa.  
Nazar soling, naqadar,  
Nafis raqsga tushar.



**O** - Ot kasbi - ishchi,  
Omborchi, yukchi,  
Ortib don-dunni,  
Oppoq tuz, unni  
Olib yeladi,  
Olib keladi.



**P** - Pingvin xola pazanda,  
Piyoz-sabzi qozonda.  
Peshin palov pishsin, deb,  
Ish boshlagan azonda.




Q

-Qaldirg'ochga qoyil-a,  
Qarang, qanday quruvchi.  
Quribdi loydan uya,  
Qotiribdi, ko'ring-chi.  
Qiyin ishmi shuyam deb,  
Qora qarg'a gap qotar,  
O'zi qurgan in esa,  
Shamolda qulab yotar.



R

-Rassom Buzoq,  
Rasm solar.  
Quyong qo'rqib,  
Razm solar.  
Rasmlarning  
Zo'ri-da u,  
Rosa katta  
Bo'ri-da u!



S

-Sa'vaxon -suxandon,  
So'zlari biyron-biyrin.  
Soling quloq, qanday soz,  
Sehrlil, sohir ovoz!




T

-Tipratikan tikuvchi,  
Tinmay tikar tun-u kun.  
Turli-tuman buyurtma,  
Taxlangan tugun-tugun.  
Tanho tannoz Tovusning,  
Tayyormas buyurtmasi.  
Timsohning terisini,  
Tesholmadi ignasi.

-Uchqur uchuvchi Ukki,  
Uzoq-uzoqqa uchdi.  
Uloqcha uchaman, deb,  
Uzala yerga tushdi.  
U yon-bu yon boqib so'n  
Uf tortdi tushib cho'kka.  
«Uchqur qanotim bo'lsa,  
Uchardim men ham ko'kka».

U




-Va'zxonlik qilar To'ti,  
«Vijdonli bo'lish kerak,  
Va'da berdingmi, bo'ldi,  
Vaqtida qilish kerak!»  
To'g'ri-yu, aytgan so'zi,  
Amal qilarmi, o'zi?

V





X

-Xabarchi Xo'roz sahar,  
Xushxabar, deb qichqirar.  
-Xalos bo'ldik zulmatdan,  
Xatarli tun-kulfatdan.  
Xursand bo'ling, oshnalar,  
Xayrli tong boshlanar...  
Xurrak otib yotmangiz,  
Xo'p g'afolatga botmangiz!




-Yo'l-yo'l formali yo'lbars,  
Yo'l nazorat xodimi.  
Yurgan yo'lovchilarning,  
Kuzatar har odimin.  
Yo'lchiroqqa qaramay,  
Tartib buza qay biri,  
Yo'lga solib, ayamay,  
Berib qo'yar ta'zirin.

Y



Z

-Zarg'aldoq zargar ekan,  
Ziragi gavhar ekan.  
Ziyrak turib doimo,  
Zarlarin asrar ekan.



O'

-O'qituvchi O'rdakning  
O'igan darsini har kun.  
O'zlashtirib, o'rganar,  
O'quvchi o'rdakchalar.  
O'zlari yosh bo'lsa ham,  
O'tkir zehnil biram,  
O'ylab topishar darhol,  
O'nta bo'lsa ham savol.



G'

-G'azalxon G'oz sahnada,  
Qo'shiq aytar «g'oq-g'oq» deb.  
Kekkeymang, davralarda,  
Kamtar bo'ling, o'rtiq deb.  
Qo'shig'i-ku, ma'noli,  
G'alati o'zi biroq.  
G'o'ddayishni tashlasa,  
Bo'larmidi yaxshiroq.

Sh

-Shifokor sher oldiga,  
Shum Tulki shoshib keldi.  
Voh, boshim, deb yolg'ondan,  
Maktabdan qochib keldi.  
Sher tekshirdi-yu, shartta,  
Dedi: -Sog'san, darsga bor.  
Shumshayib qaytdi ortga,  
Shamolda bo'lib ayyor.



Ch

-Chigirtka zo'r cholg'uvchi,  
Chalar kuy, charchamasdan.  
Chirildoqlar jo'r bo'lib,  
Chirillar har tarafdan.  
Chir aylanib o'ynaydi,  
Chiroyli kapalaklar,  
Chapak chalay quvaydi,  
Chamandagi chechaklar.



Ng

-Tayyorga ayyor Nahang,  
Tekinxo'r, takasaltang.  
Qarmoqdagi o'ljaga,  
Og'iz safsandi, qarang:  
Tumshug'idan ilinib,  
Tipirchilab, holi tang.



**10-modda.** O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylangan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

**11-modda.** O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

**12-modda.** O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

**13-modda.** O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplariga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlari bilan himoya qilinadi.

**14-modda.** Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»dan

Aziz bolajonlar! Siz Respublikada xizmat ko'rsatgan jurnalist, «Sog'lom avlod» gazetasining Bosh muharriri Ra'no ZARIPOVAni yaxshi tanisiz. Ularning keng mushohadali, tahliliy maqolalarini o'qigansiz. Mustaqilligimiz bergan saodatning har sohadagi yutuqlarini dadil fikr va o'ktam so'z bilan yoritgan mohir jurnalist izlanishlarining mahsuli.

Ular badiiy ijodda ham o'z qalamiga ega adiba, qator kitoblar muallifi. Ra'no opangiz padari buzrukvori xotirasiga bag'ishlab esse yozgan. Adiba essedan bir parchasini e'tiboringizga havola etar ekan, shu asar orqali oilada otaning tutgan o'rni va qadri balandligini, uning izzatini yuqori qo'yish lozimligini sodda, xalqona ifoda etadi.

Adiba opangizning hayotida yana bir yangilik: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasiga O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tomonidan ularning ham nomzodi ko'rsatilgan. Biz sizlarning nomingizdan adiba opangizga yutuqlar tilab qolamiz.

## EZGULIK QOLAVERADI, XOTIRA YASHAYVERADI

### CHORASIZ DUNYO

O'sha lahzada dunyodagi eng katta va eng jiddiy xodisa o'lim ekanligini his etdim. Maktabga ketishga tayyorgarlik ko'rayotgan edim. Darsdan hech qoldirmaydigan otam, bugun maktabga bormasang ham bo'laveradi, dedi-da, boshqa gapirolmadi, ovozi qaltirab ketdi. Hamisha jiddiy va qat'iy boquvchi ko'zlaridan tirqirab yosh quyilar, yelkasi dir-dir titrar edi. Go'yo otamning butun vujudi ko'pirib, qirg'oqlarga zarb bilan urilayotgan dengiz to'lqinlaridek pishqirar edi. Anchadan beri kutilayotgan voqea sodir bo'lganini his etdim. Opam yotgan xonaga yugurdim. Momom bemorning tomirini ushlab turar, u nafasi qisayotgandek xirillardi. Opam shu alfozda momomga, enamga, onamga, otamga bir-bir qaradi. Oxirgi nazar menda qoldi. Bu ko'zlarda iltijomi, muhabbatmi nedir bor edi. Xirillash bir kuchaydi-yu, tindi. Qorachiqdan tomchi yumaladi. Onam dodlab yubordi. Momo ochiq qolgan ko'zlarni siypaladi. Uyni qiy-chuv tutib ketdi.

Ochilmay so'lgan voh bolam-a,  
Gulday uzilgan voh bolam-a,  
bo'zlardi onam.

O'sha paytda murg'ak qalbm bilan dunyodagi eng katta xodisa o'lim ekanligiga ishonдим. Xayolimdan opamning ohista va g'amgin aytgan so'zlari, mahzun ovozi, ma'yus ko'zlari o'tdi: «Ammamning dugonasi sirka ichib o'libdi. Birov joniga qasd qiladi. Men esa olti oydir-ki, dardimga malham izlab, kasalxonadan chiqmayman».

So'ngra birdan qat'iy va kutilmagan savolni berib qoldi: -Men tuzalmas emishman, shundaymi? Sen yolg'on gapirmagansan, ayt, rostmi shu gap?

Opamning ko'zlarida yolqin, haqiqatni bilishga bo'lgan intilish bor edi. Nazarimda uning katta-katta ko'zlari yanada kattalashganday bo'ldi. So'zlaridan tars yorilgudek bo'lib, ko'zlarimni yashirdim. Haqiqat oldida kichrayib, yo'q bo'lib ketayotgandek tuyuldim



Zarif Bekchonov

o'zimga-o'zim.

-Yolg'on, tuzalasan, farrosh xotin valdirayveradi.

-Ertami-kechmi baribir hayotimning intihosi bor-ku, -dedi sekin o'ziga-o'zi gapirgandek.

Yo'q bo'lib ketayotgan ruhim, ko'zlarim sekin o'ziga keldi. Opamga qaradim, ko'zlar uchrashdi. Uchrashdi-yu, tomchi tomdi. Nega tomdi. Nega ushlay olmadim? Javob bo'ldimi bu? Hamon-hamon ezilaman.

O'zbek xalqida yosh o'lsa zikr tushib yig'lash urf-odat. Kattalar chapak chalib, faryod qilardilar.

Beixtiyor bo'g'zimdan bir sado, dunyoning avra-astarini chiqarib yuborgudek bir nido otilib chiqdi: Mumkin emas! Mumkin emas!

Nazarimda kulba ham horg'in. Devorlar so'lg'in. Miltiragan chiroqlar hamma-hammasi mantiqsiz edi. Hozirgina opam menga termulayotgandi. U yashashni istardi. Hayotga mushtiq edi. Matematika olamida qanot qoqardi. Misol-masalalarni daqiqada yechib tashlardi. Barchaning havasi kelardi. Olam-olam orzulari bilan jon taslim qildi. -Mumkin emas, mumkin emas, -dedi devonavor ichki tug'yon va g'alayon bilan takrorlardim.

O'qchiy boshladim. Faryod chekayotgan yaqinlarimning sasarlari go'yo uzoq-uzoqdan egshitilardi. So'ngra nima bo'lganini eslay olmayman. Kimdir iliqqina nimadir ichirdi. Biroz o'zimga kelgandek bo'ldim. Biroq, hamon atrofdagilarning so'zlarini elas-elas anglardim. Qo'shni momo onamga ham nimadir ichirdi.

-Ayollar qiynalib ketishdi. Xalfa enani chaqirish kerak, -dedi o'zini tutib olgan otam. -Xalfaning kitoblari sabr-toqatga o'rgatadi.

Xalfa keldi. U nimani o'qidi. Hamma-hammasi tuman ichidagidek edi. Go'yo butun dunyo kulfatga, ko'nglim ham kulfat daryosiga aylangandek edi. Ana shu daryodan chiqish uchun qancha kechdim,

qancha-qancha suzdim, hamon-hamon o'ylayman. Opam tushlarimdan chiqmaydi. Nimalarnidir xursand gapiradi. Kiyimlari qip-qizil, atrof yam-yashil go'zal makon. Tushmida u ro'yo.

Onamga gapirib beraman. **Mehr** a! Suvrati va siyrati ko'z o'ngimda paydo bo'laveradi. Bir parcha yerga urug' sochayotganda o'rgatardi: Bu nozvoy- adabiy tilda rayhon. -Bu hiloy- adabiy tilda yalpiz, bu shivit. Bularni quritib, yozin-qishin iste'mol qilinsa kasal dorimaydi. Dardga davo tabiatning o'zida! Yong'oq nimaga o'xshaydi, odam miyasiga. Demak, miyaga quvvat

O'tgan vaqt «mumkin emas»ga ham ko'ndirdi. O'lim bu opam aytganidek, «Hammaning oxirgi yo'li, tiriklikning so'nggi manzili ekan», degan xulosaga

kelib ulgirdimi, yo'qmi?! Yo onam aytganidek, «intiho bilan ibtidoning birlashgan joyi ekan», degan so'zga ko'nikdimmi, yo'qmi?! Bu dahshat, bu azob, bu titroq yana o'n besh yil o'tib takrorlandi.

-Qizim, sendan roziman. Sen ham rozi bo'lg'in, o'zingni dadil tut. Belingni mahkam bog'la. Esingda tut, qaytmaydigan narsaga kuyunma, -dedi otam vidolashayotganda.

Birinchi dahshat oldida qotib qolgan edim. Ikkinchi sinov... Otamning salmoqlab osoyishta so'zlashlari oldida dong qoldim. Zo'rg'a o'zimni ushlab, hovli etagidagi uyga o'tdim. Yig'lab yubordim. Yig'lab-yig'lab, yuragimni biroz yumshatdim. Yuz-ko'zimni yuvib, yana qaytib kirdim. Insonni jon taslim qilishini o'shanda ikkinchi marta ko'rdim. Bu biri biriga o'xshamasdi... Faqat yaqinlarning azobigina o'xshash nazarimda...

Enam «Sen o'lguncha men o'lsam bo'lmasmidi, bolam»-deya piq-piq yig'lab, o'g'lining iyagini, oyoqlarini siypalab oppoq surp bilan bog'layotganida yuragim o'ynab, faryod otilib chiqdi. «Oyog'ingga ip urilgay», «Iyagingdan qoqqay», «Qotib qoldingmi», degan qarg'ishlar shu holatga ishora ekan-da, beixtiyor ko'nglimdan kechdi.

O'lik yuvguvchi kelib yigirma metr surp, oppoq paxta, tutilmagan igna-ip so'rganida, diydorlashuvning so'nggi daqiqalarini his etib, yuragim uvishdi. Sartaxta olib kirib ketishayotganlarida esa yuragim uzilgandek bo'ldi. Faryod otilib chiqdi. Faryodga faryodlar qo'shildi.

### DARDNING DAVOSI TABIATNING O'ZIDA

Otam tarixchi bo'lmasa-da, Vatan tarixini, elning go'zal urf-odatlarini yaxshi bilardi. Yangilikka intilib yashash, qalb amri bilan borliqni voqelikni idrok etib yashashdek go'zal tuyg'ular mujassam edi qalbidagi. Vatan, tug'ilgan go'sha, o'zlikni anglash, qadr tuyg'usi. Bu so'zlar qatida qancha sevinch-u, qancha nadomat, qancha g'am-u shodlik barqaror! Bu tuyg'ular har bir qalbdagi o'z shakli-shamoyiliga ega. Bu tuyg'ular qanchalar qadimiy, qanchalar azaliy bo'lmasin, har bir inson, har bir yurak bu tuyg'ularni qaytalab, yangilab

yashaydi. Bu go'zal tuyg'ular avvalo oilada jon-u qonga singadi. Ona suti-yu ota mehri bilan tomirlarga harorat bo'lib enadi. Buning uchun otam qancha kuch sarfladi ekan-

a! Suvrati va siyrati ko'z o'ngimda paydo bo'laveradi. Bir parcha yerga urug' sochayotganda o'rgatardi: Bu nozvoy- adabiy tilda rayhon. -Bu hiloy- adabiy tilda yalpiz, bu shivit. Bularni quritib, yozin-qishin iste'mol qilinsa kasal dorimaydi. Dardga davo tabiatning o'zida! Yong'oq nimaga o'xshaydi, odam miyasiga. Demak, miyaga quvvat

bo'ladi. Lavlagi nimaga o'xshaydi, jigarga! Demak, jigarga foyda, uni tozalaydi. Jiyda nimaga o'xshaydi? I c h a k l a r g a . Chingirikchi?(Shakarqamish) Tomirlarga!

Xorazm maqomlari chalinsa ohangga mos tebranib, barmoqlari bilan chalib jo'r bo'lardi. «Lazgi» boshlansa bolalarni o'ynatib zavq-shavq bilan qarab turardi: «Yuksak san'atkorlik namunasi bo'lmish «Lazgi» ohanglari kishiga huzur



hamda zavq-shavq bag'ishlashidan tashqari salomatlikka foyda. Raqs yurak mushaklarini mustahkamlaydi, paylarga tuz yig'ilishining oldini oladi», deb o'rgatardilar.

Yoz kelsa, bolalarni ergashtirib ko'lga borardi. Suzishni bilish qiz-u o'g'il uchun hayotiy zarurat hisoblardi, farzandlarga singdirardi: «Yozda cho'milib, quyosh nurida toblangan bola qishda shamollamaydi».

«Bu - Vatan oftobi orombaxsh, tuprog'i oltin. Bu Vatan havosidan Beruniy, Xorazmiylar nafas olgan. Uning yulduzli osmoni, sehrli chechlari haqida Navoiy, Ogahiylar yonib kuylagan. Tabiatning ulug'vorligi, salobati va go'zalligi bois o'lmas shashmaqom kuylari yaratilgan. Diyorimiz mo'jizakor. Dardlarning davosi ham ana shu mo'jizakor tabiatning o'zida».

Oilada o'n bir farzand edik. O'n birimizning o'n bir turli qilig'imiz-u, o'n bir xil xulq-atvorimiz bo'lishi tabiiy. Biroq otamning biror marta ovozini balandlatganini yoki biror beo'rin so'z aytganini eslamayman. Bolalar bilan birga bo'lishga hamisha vaqt topardi. O'ta bolajon edi. Shunday katta qalbni, katta kuchni qaydan oldi ekan-a!?

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

## BAHAYBAT KALTAKESAKLAR

Shu suhbatning nomini «Bahaybat kaltakesak»lar deb atadim-u, o'zimcha

Dinozavrlar olishayotgan vaqtda dahshatli o'kirik ovozi hammayoqni tutib ketgan. G'olib kelgan dinovavr o'z o'ljasini parchalab tashlagan. Mag'lubiyatga uchragan dinovavr yerga qulaganda

qanchalik haqiqatligi noma'lum. Menimcha G'.Sultonov va R.Obidovlarning «Yerosti hayvonot bog'i» nomli kitobida keltirilgan quyidagi fikrga jon borgan o'xshaydi. «So'nggi yillarda yana bir taxminga

Uning oldingi ikki oyog' orqa oyoqlariga nisbatan uzunroq bo'lgani uchun xuddi tanasining orqa tomoni cho'kkandek ko'ringan. U 9 metrga yaqin bo'yni bilan atrofidagi baland daraxtlarning barglarini va suv

### Mustaqil dars

bilan olishuvda old oyoqlari, dumi va tishlaridan foydalangan. Gala-gala bo'lib yurgan. Uning tishlari nihoyatda zich joylashgan bo'lib, 2000 dan ortiq bo'lgan. Bu kaltakesakning tumshuq tomoni o'rdak tumshug'iga o'xshash. Traxodanlarning ayrim turlari bo'r davrida Shimoliy Amerikada yashagan.

# «UCHINCHI SAYYORA» BO'YLAB SAYOHAT

o'ylanib qoldim. Ularning hammasi ham bahaybatmi? Ular orasida nahotki, «kichintoy»lari, bo'lmagan? Albatta bo'lgan. Lekin shunisi aniqki, ularning ayrimlari qushga o'xshab uchgan. Uchganda ham osmonni to'ldirib uchgan. Ularning ayrimlarining qanot uzunligi 80 metrgacha bo'lgan. 80 metr! Tasavvur qilyapsizmi?! Bu qariyb bitta futbol o'yingohining bo'yi bilan barobar! Hozirgi qushlar ana shu uchar kaltakesaklarning avlodlari degan fikrlar o'z tasdig'ini topmayapti. Chunki bu qushlarning qanoti patdan iborat bo'lmagan. Ularning qanoti oldingi oyoq panjalaridan orqa oyoqqa qarab tortilgan teri pardasidan tashkil topgan. Eng

hammayoq gumburlab, Yer go'yo silkingandek bo'lgan. Chunki bo'yi 25-30 metr, og'irligi 27-31 tonna keladigan «Go'sht fabrikasi»ning yerga qulashini bir tasavvur qiling! Ming afsuski, ana shu bahaybat dinovavrlarning hammasi qirilib ketgan. Siz kinolarda odamlar dinovavrlar orasida yurganini, hattoki odam dinovavr bilan olishayotganini ko'rgansiz. Bular hammasi bir xayol, xolos. Chunki dinovavrlar Yer yuzida odam paydo bo'lmasdan ancha million yil avval butunlay

qaraganda, Quyosh ikkitaga o'xshab qoldi. Astronomlar biz qo'shaloq yulduzlar sistemasida yashayotirmiz. Quyoshning sherigi borligi ehtimol, degan taxminga kelishdi. Ularning aytishicha, ikkinchi quyosh orbitasini juda uzoq vaqt bir necha o'n million yil mobaynida aylanib chiqadi va hozir aynan orbitasining Yerdan eng olis qismida bo'lgani uchun ham bizga ko'rinmayotir. Ikkinchi quyosh har safar yaqinlashganda Yer yuzida katta talofatlar yuz beradi, deb gumon qilishyapti astronomlar. Buni qarangi, paleontologlar bu gapda jon bor deyishmoqda. Chindan ham muayyan davrlarda Yer yuzida katta halokatlar yuz bergan. Har safar jamiki tirik jonning yarmi, hatto undan ko'prog'i qirilib ketgan. Ana shunday halokatlar birida dinovavrlar qirilib ketgan, deyish mumkin».

Aziz o'quvchim! Bu qanchalik haqiqat ekanligini kelajakda hal qilishga Siz yordam berasiz, degan umidda dinovavrlarning ayrimlari bilan tanishtirishni o'rinli deb bildim.

### BRAXIOZAVR

Bu gigant kaltakesak o'txo'r hisoblangan. U asta-sekin juda ham zalvorli qadam tashlab lapanglab yurgan. Chunki uning bo'yi taxminan 22 metr, balandligi 11 metrdan ortiq, vazni esa 80 tonnaga yaqin bo'lgan.

### IV bob

## TASHQI SIYOSAT

**17-modda.** O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarining to'la huquqli sub'yektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalariga va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»dan



qizig'i shundaki, uchar kaltakesaklarning ko'pchiligining dumi nihoyatda qisqa bo'lgan. Ular gala-gala bo'lib uchgan. Daraxtga qo'nganda oldingi oyoqlari bilan shoxni ushlab, qanotlarini osiltirib o'tirgan. Turli xil molyuskalar va baliqlar bilan oziqlangan. Uchar kaltakesaklarning hammasi ham bahaybat bo'lmagan. Ularning ayrim turlari qarg'adek kelgan. Ana shu kaltakesaklarning ko'pchiligi baliqlar bilan oziqlangan. Uchar kaltakesaklardan tashqari sudralib yuruvchi kaltakesaklar ko'p bo'lgan. O'sha davr o'rmonzorlari, dasht-u ko'l, tog'u toshlar podshosi hisoblangan sudralib yuruvchi g'aroyib, bahaybat kaltakesaklar - dinovavrlar tashqi ko'rinishi jihatidan nihoyatda xilma-xil bo'lgan. Ular ham asosan gala-gala bo'lib yashagan. Ularning terisi junsiz, qalin bo'lib, ayrimlarida suyak qalqonlar va dahshatli zirx bilan qoplangan. Ular ko'pincha yakkama-yakka olishgan.

o'tlarni bemalol olib yeya olgan. Qizig'i shundaki, uning shu gavdasiga boshi unchalik katta bo'lmagan. U oldingi baquvvat oyoqlari bilan dushmanlarini majaqlab tashlagan. Dushmanlari bilan olishuvda 2 metrdan ortiq baquvvat dumi unga yordam bergani shubhasiz.

### III bob

## KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI

**15-modda.** O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

**16-modda.** Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

U chuqur suv havzalarida va o'rmonga yaqin qirg'oq bo'ylarida gala-gala bo'lib yashagan. Uning to'liq skeleti Germaniyadagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Braxiozavr bundan taxminan 100 million yil avval qirilib ketgan.

### TRAXODAN

Traxodan bo'yining uzunligi taxminan 10 metrga bo'lgan. U o'txo'r hayvon bo'lib, suvda ham, quruqlikda ham yashagan. Traxodan to'rt oyoqlab va ikki oyoqlab yura olgan. Orqa oyoqlari old oyoqlariga nisbatan baquvvat bo'lgan. Dushman

Bosh qismining uzunligi esa taxminan 1 metrga bo'lgan. Uning old oyoqlari nihoyatda baquvvat bo'lib, old oyoqlari juda kichkina va nimjon bo'lgan. Shuning uchun u old oyoqlarini ehtiyotlab, ko'kragiga bosib yurgan. U zalvorli qadam tashlab yurgan, o'ljasiga dahshatli o'kirish bilan tashlangan va yirik, o'tkir tishlari bilan g'ajab tashlagan. O'ljasi bilan olishishda goho kuchli va baquvvat dumidan ham foydalangan. U o'ljasini dumi bilan urib yiqitgan, baquvvat oyoqlari bilan majaqlagan. O'tkir tishlari bilan tilka-pora qilgan. Qadamining uzunligi taxminan 3,5 metrdan oshiq bo'lgan.

(Davomi bor.)

Bahrom  
AKBAROV.



# NA'MATAK

Tog'dagi xarsang toshlarning orasidan o'sib chiqqan na'matak hech kimdan qo'rqmas ekan.

-Men seni ildizing bilan yulib olaman,- der ekan tog' shamoli uvillagancha.

Na'matak toshlarga tirmashgancha to shamol tingunicha indamay turaverar ekan.

-Seni bir muzlatib tashlamasammi,- deb do'q urar ekan qish izg'irini. Na'matak ustidan qalin qor bosib qolsa ham chidar ekan.

Chunki u yana bahor kelishini, o'zining yana pushti gullarga burkanishini yaxshi

bilar ekan-da.

Haqiqatan ham bahor taftidan cho'chigan izg'irin ortiga chekinar va na'matak pushti gullarga burkanib, kattakon guldastaga o'xshab qolar ekan.

-Gullaring judayam xushbo'y-da,- der ekan

t o g ' chumchug'i unga.

Na'matak xursand bo'lib ketsa-da, indamas, maqtangani uyalar ekan. Kuzda esa na'matakning pushti gullari o'rnida qip-qizil mevalar pisharkan.

-Mevalaring judayam shirin-

*Gulnoz TOJIBOYEVA, Poytaxtimizdagi 266-maktabning 8-sinf o'quvchisi.*

(Ertak)

da,- deb maqtashar ekan uning tepasidan uchib o'tib ketayotgan qushlar.- Mevalaringni yegan sari yegimiz kelaveradi.

Shunda na'matakning bahri - dili ochilib ketar ekan.

- I s t a n g a n c h a yeyaveringlar, osh bo'lsin!- der ekan.

Na'matak juda kamtar bo'lsa-da, tog'dagi hayvonlar va qushlarning bari uni tanishar, yaxshi ko'rishar ekan. Chunki u o'zining shirin mevalari bilan hammaga foyda keltirar ekan-da...

*Gulnoz TOJIBOYEVA,*

*Poytaxtimizdagi 266-maktabning 8-sinf o'quvchisi.*

## TEZ AYTISHLAR

*Furobjon topishmoqni topolmay to'xtadimi, Fuyg'unjon to'tisini tutolmay to'xtadimi?*

*Jajji jilg'a jarangi jarangladimi, Jajji jo'ja joyidan jilmadimi?*

*So'zning sehri Salomatni sehrladimi, Sehrning siri Salomatni sehrladimi?*

*Olimjon olgan olmani Olmaxon oldimi, Olmaxon olgan olmani Olimjon oldimi?*

*Shohsanam NURMATOVA, 4-sinf o'quvchi.*

O'z yurtini - oltin bekligini  
**TONG yulduzi**

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**

Umida ABDUAZIMOVA.

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV,  
Shuhrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(*Bosh muharrir o'rinbosari*),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
O'ktam OHUNOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
N: 022 raqam bilan  
2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 11167

Buyurtma N: J 758

Dizayn va sahifalovchi:

Otabek ESHCHANOV.

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru


Tel: 144-10-38

144-38-10

144-21-75

Tel/ faks:

(99871) 144-24-45



## DO'STLIK

*Dugonalar bizlarmiz,  
Ahil-inoq qizlarmiz.  
Oltinoy, Gulnoz, Lola,  
Kulgulari shalola.  
A'lo o'qiyimiz doim,  
So'zlashamiz muloyim.  
Barchaga ibrat bo'lib,  
Yashnaymiz o'ziday to'lib.*

*Umida SHARIPOVA,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 2-o'rta maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.*



## VASHASH ZAVQI

*Yolg'onlarga emasman hech zor,  
Kimligimni Ollohim bilar.  
Ko'ngillarga bermayin ozor,  
Ishontirib yashagim kelar.*

*Qalbda umid yulduzidayin,  
Ummonlarda shabboda yelar.  
Men kechaning kunduzidayin,  
Ishontirib yashagim kelar.*

*Nohaqlarga hech qul emasman,  
Haq insonga boshim egilar.  
Shu so'zimdanda o'zga demasman,  
Ishontirib yashagim kelar.*

*Dildora QURBONOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyi o'quvchisi.*

?

## SAVOLLAR:

1. Og'a.
2. Boshqoqli ekin.
3. Tog'ayli baliq.
4. Bichim.
5. Isbot talab qilmaydi.
6. Yuqori tabaqadagi shaxs.
7. Havo qobig'i.
8. Aka- ukaning bolalari.
9. Osmon ilmi haqidagi fan.



*Nazira NAZAROVA, Ra'no AHMEDOVA,  
Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi  
Abdulla Avloniy nomli  
5-umumta'lim maktabining  
8-sinf o'quvchilari.*

